

Eshboboyeva Munira Mannon qizi

Uchtepa tumani 238-maktabning matematika fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5883076>

MUSIQA ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya *Ushbu maqolada musiqa orqali o'quvchilarni matematik qobiliyatlarini shakllantirish kabi masalalar yoritilgan. Maktab o'quvchilari bugun ko'proq turli xil musiqa ohanglariga qiziqadi va shu orqali bolalarni maktabda turli xil fanlarga xususan matematika fanini o'zlashtirishda o'quvchilarni diqqatini jamlanishida musiqaning o'рни beqiyosdir. Aynan maktab o'quvchilarini musiqa orqali matematika faniga bo'lgan qiziqish mexanizmini yanada takomillashtirishning samarali yo'llari haqidagi fikrlar bayon qilingan.*

Калит сўзлар: *geometrik figura, grafik tasvir, video, tovush, matematik tasavvur.*

Musiqa o'zining emotsional ta'sir etuvchi kuchi bilan har qanday san'at turidan ustun turadi. Ushbu ta'sirning naqadar keng va chuqur bo'lishi tinglovchining haqiqiy san'at bilan aloqa qilishga tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Musiqa bolalarning matematik tasavvurlari dunyosiga kirishi ilk va maktabgacha yoshida boshlanadi.

Musiqani tinglab idrok etish murakkab ko'p darajali hodisa, bir tomondan, musiqiy badiiy obrazning o'ziga xosligi va murakkabligi, ikkinchi tomondan bolaning yosh xususiyatlari bilan bog'liq. Ular musiqa ohanglarini eshitish orqali predmetlarni nomlashadi, shakli, rangini aniqlaydi, o'lchamlari bo'yicha solishtiradi, miqdoriy va fazoviy nisbatini o'rnatadi, geometrik figuralar va ularning o'lchamlari bilan tanishadi, modellashtirish faoliyatini o'zlashtiradi.

Chunki, bolalikdan musiqiy idrok qobiliyatining rivojlanmaganligi tufayli yoshlarda matematik tasavvurni shakllanmasligiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda ta'limda kompyuterlardan foydalanish oddiy holat bo'lib qoldi. Kompyuterning axborotlarni grafik tasvir, video, tovush, nutq ko'rinishida aks ettirishi hamda ma'lumotlarni qayta ishlash bolalar uchun faoliyatning yangi vositasini yaratishga imkon bermoqda. Bularning barchasi maktabda o'quvchilarga yangi talablarni qo'yimoqda.

Musiqani jonli obrazli san'at sifatida idrok etish hayot bilan uzviy bog'liqdir va "Musiqani tinglash" nafaqat matematika darsning alohida qismi, balki o'quvchi matematik amallarni bajarishda, hisob ilmini to'g'ri tahlil qilishda yetakchi faoliyatdir. Musiqani tinglash orqali bolalar matematika dunyosiga qiziqadi, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, tez fikrlashni faollashtiradi, uning ohangiga javoban

bolaning tez fikrlash, har qanday murakkab jarayonga hozirjavob bo'lishga odatlantiradi.

Musiqaning o'quvchi hayotida tutgan o'rni va roli quydagilarda namoyon bo'ladi: Bu borada o'quvchilar o'zining musiqa tinglash qobiliyati va kichik hayotiy tajribasiga tayanib, musiqa san'atining chinakam badiiy ahamiyatga ega asarlarini tanlay olmaydilar, professional san'atni havaskorlik tomoshalaridan ajratib turadigan chegarani hali his etmaydilar. Shunga ko'ra, boshlang'ich maktab yillarida bolalar musiqa mazmunini tez tushunib olishlari uchun, asar so'zlar yoki dasturiy nom, o'yin yoki raqs harakatlari, rasm yoki film bilan uzviy uyg'unlikda eshittirilishi lozim. Musiqani tinglash faoliyati bolalarni yoshiga muvofiq taniqli bastakorlar musiqasi bilan tanishtiradi, musiqaning ifodali vositalari to'g'risida zarur bilimlarni olishga imkon beradi. Musiqani idrok etish jarayonida maktab o'quvchilarida haqiqiy badiiy musiqaga bo'lgan ishtiyoq uyg'onadi, u bilan aloqa qilish zarurati vujudga keladi, ularning musiqiy qiziqishlari va didlari tarbiyalanadi. Musiqa hayot haqida hikoya qiladigan, his-tuyg'u va fikrlarni, insoniy kayfiyat xillarini ifodalaydigan tasavvurlar shakllantiradi.

Umumiy musiqa ta'limining yetakchi vazifasi maktab o'quvchilarida musiqa tinglash madaniyatini rivojlantirish bo'lsa, musiqa tinglashning o'zi esa bolalarning musiqiy faoliyatdagi asosiy shakli deb hisoblanadi. Maktab o'quvchilarida musiqa tinglash madaniyatini shakllantirishning muhim sharti musiqani idrok etish jarayonining to'g'ri tashkil etilishi bo'lib, u musiqiy asarlarni umumiy xarakteri va ifodali vositalar, janrlar va uslublar bo'yicha ajratib turishga, musiqa mazmunini tushunishga va boshdan kechirishga, uning tasvirlarini xotirada saqlashga, uning ovozi ifodalashga o'rgatadi. Musiqiy asarni tinglashdan oldin o'quvchilar e'tiborini ushbu faoliyatga tayyorlash alohida ahamiyatga ega: suhbat, hikoya-suhbat, savol, tinglash oldidagi topshiriq va boshqalar.

Musiqa tinglashning butun jarayoni muhimdir. Uning natijasida ma'naviy va axloqiy vaziyatlarni vujudga keltiradigan intensiv hissiy va intellektual mehnatga aylanishi lozim. Bunday vaziyatlarning yaratilishi qoida tariqasida, asarni qayta tinglashni talab qiladi. Va bu, o'z navbatida, klassik musiqaga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishning asosiy kafolati bo'lgan tinglovchilarning intonatsion lug'at boyligini rivojlantirishga yordam beradi.

Musiqa orqali bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasining bosh masalasi matematik tasavvurlarni shakllantirishning didaktik asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Bu o'z navbatida dunyoni chuqur bilish, fikrlash, rivojlanishning yangi usullarini o'rganish kabi vazifalarni bajarish orqali yechiladi. Bu shakllantirishning nazariy jihatlarini psixologik va pedagogik fundamental fanlar asosida yaratiladi: ko'rgazmali dasturli hujjatlar (bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish bo'yicha ko'rsatmalar); uslubiy adabiyotlar (jurnallarda chop etilgan

maqolalar); jamoa va individual tartibda ish olib borish, ilg'or tajriba va olimlarning fikrlari.

Bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishning asosiy masalalari quyidagilardan iborat: bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish darajasi nuqtai-nazaridan boshlang'ich, o'rta va yuqori sinflarlar uchun shartli rejasini asoslash, yo'llari va shartlarini ishlab chiqish, ushbu shakllantirishni ta'minlovchi uslubiy ko'rsatmalar berish.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki musiqa ohanglarini maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablaridan kelib chiqib, bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bo'yicha asosiy vazifalar quyidagilar hisoblash o'rinlidir: rang, shakl va o'lcham kabi atrof-muhit ob'ektlarini va ularning modellarini tushunishga yordam berish, kuzatish va tajriba, tahlil va taqqoslash, klassifikatsiyalash va bo'lish kabilar orqali atrof-muhit ob'ektlarni hamda ularning modellari bilan o'zaro munosabatida bolalarning faol bilish faoliyati uchun sharoit yaratish, vaziyat, topshiriq va ularni bajarish usullari, faoliyat va uning natijalarini tahlil qilishni bayon etish orqali bolalar lug'atini oddiy matematik terminlar bilan boyitish, o'rgatuvchi o'yinlar, topshiriqlar, mashqlarni qo'llash qoidalarini tushunish hamda keyinchalik qo'llashga yordam berish hamda faoliyat turlari va usullarini tanlash bo'yicha tashabbuskorlik ko'rsatish uchun sharoit yaratish.

Bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish bir qator shartlarga bog'liq. Birinchidan, bola oldin egallagan bilim va ko'nikmalarga ega, ikkinchidan, matematik tasavvurlarning mazmuni ketma-ketlikda bo'lishi shart, uchinchidan, bola matematik tasavvurlarni o'zlashtirish jarayonini o'rganib, kelib chiqadigan xulosalarni bilishi shart. Ushbu vazifalarning bajarilishi bolaning bilim hajmi va aqliy rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Shuning uchun birinchi bosqichda tarbiyachi aqliy kuch va tirishqoqlikni ko'p talab qilmaydigan masalalarni taklif etish kerak. Bunda bola sodda matematik tushunchani o'zlashtirishi, keyin esa bora-bora o'zi mustaqil ishlash ko'nikmasini hosil qilgunicha matematik tasavvurlarni shakllantirib, murakkablashtirish kerak. Matematik tasavvurni o'zlashtirish jarayonidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi shu tasavvurning mazmuniga ham bog'liq. Har bir tasavvurdagi ma'lumotlar, matematik tushunchalar va g'oyalarning mantiqiy tugallangan doirasidir, bu esa matematika o'qituvchisi tomonidan faol o'zlashtirilgan, qaytadan ishlab chiqilib oxirigacha o'ylangan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, musiqa tinglash maktabdagi matematika darslarining asosiy va keng qamrovli faoliyati hisoblanadi. U "musiqiylik" "matematik" tushinchalar tarkibiga kiradigan o'quvchilarning barcha qobiliyatlariga asoslanadi, shuningdek, ularning musiqiy tasavvur va bilimlar shaklida xotiraga singdirilgan o'tmish tajribalarini o'z ichiga oladi. Faqat maqsadli pedagogik rahbarlik bilan maktab o'quvchilari musiqiy san'atning yuksak badiiy asarlarini tinglash orqali matematik tasavvurlarini boyitishga tayyor bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, ta'lim

faoliyatining ushbu turi o'qituvchiga maqsadlar, strategiyalar va idrok etish natijalaridagi individual farqlarni, unga kiritilgan psixik jarayonlarning tabiatidagi farqlarini tushunish vazifasini qo'yadi. Bu farqlar ko'p sabablarga ko'ra, o'quvchilarning matematik qobiliyatlaridagi farqlardan ularning musiqiy ta'limi va tarbiyasidagi farqlarga, shuningdek, shaxsning ijtimoiy-madaniy manfaatlari va ehtiyojlari darajasi hamda yo'nalishiga qarab yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR:

1. Grodzenskaya N.L. Shkolniki slushayut muziku. –M., 2011.
2. Suxomlinskiy V.A. Serdse otdayu detyam. –M.: Konseptual, 2019.
3. Rahmonqulova Z. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarini shakllantirish. Metodik qo'llanma. – T., 2007
4. Bikbaeva N.U., Yangabaeva E., Girfanova K. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini boshlang'ich matematik ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida o'qitish. – T.: Turon-Iqbol, 2008. – 88 b.
5. A.Mavlyanov, S.Abdalova, L.Yu. Yusupova. "Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida dars mashg'ulotlarini olib borish texnologiyasi". –T., 2010.